

**SANOAT MULKI OBEKTIGA PATENT OLIISH. UNI Rossiya
FEDERATSIYASI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HAQIQIY
EMAS DEB TOPIISH ASOSLARI**

Muhiddinov Shahzodjon Abdurayim o'g'li

Huquqshunos

e-mail: shakhzodjon@mukhiddinov.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat mulki va uning obektlari, ularga patent olish borasida so'z yuritiladi. Xususan, sanoat mulkining intellektual mulk huquqida tutgan o'rni va ahamiyati borasida alohida to'xtalib o'tiladi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, sanoat mulki obektlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish uchun bir qator tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, ushbu maqolada sanoat mulki obektiga, xususan, ixtirolar, sanoat namunalari va foydali modellarga patent olishning muhimligi va ahamiyati batafsil o'rganiladi. Muallif tomonidan sanoat mulki obektining patentga layoqatlilik shartlari haqida ham batafsil yoritiladi. Ushbu maqolada yuqoridagilardan tashqari, qiyoslash sifatida Rossiya Federatsiyasida intellektual mulk, xususan, sanoat mulki obektiga berilgan patentning haqiqiy emas deb topilishi – uning qonunchiligi asosida o'rganiladi. Ixtiro, sanoat namunasi va foydali modelning o'zaro farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sanoat mulki obekti, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, patent, vakolatli organ, department, intellektual mulk, muhofaza, himoya, tovar.

Avvalo, shuni aytish joizki, intellektual mulk deganda, insonning bevosita intellekti orqali yaratilgan ijod mahsuli tushuniladi. Bu bo'lishi mumkin, adabiyot

namunalari, fan, san'at asarlari, ixtirolar yoki foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, ishlab chiqarish sirlari ya'ni nou-xaular va boshqalar. Eng asosiysi, insonning o'sha intellekti orqali vujudga kelgan yuqoridagi kabi intellektual mulk obektlari bugungi kungi kelib, butun dunyo bo'ylab o'z muhofazasiga ega hisoblanadi.

Intellektual olamda sanoat mulki ham, intellektual mulk huquqining ajalmas bir bo'lagi hisoblanib, o'zining bir qancha alohida xususiyatlari bilan boshqa intellektual mulk obektlaridan farq qiladi. Tabiiy savol tug'ilishi mumkin, albatta: nima uchun ixtirolar, foydali modellar yoki sanoat namunalari umumiy nom ostida – sanoat mulki obektlari sifatida tan olinadi. Ushbu savolga javob berishda, bevosita ularning patentga layoqatlilik xususiyatlarini yodga olish zarur bo'ladi. Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 62-bobi sanoat mulkiga bo'lgan huquq mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, uning 1082-modda birinchi qismida belgilanib qo'yilganidek, ixtiro, foydali model va sanoat namunasiga bo'lgan huquq patent berilgan taqdirdagina muhofaza qilinadi.¹ Ko'p manbalarda "Intellektual mulk agentligi" degan vakolatli davlat organining nomiga ko'zimiz tushadi, albatta. Mavzuyimiz doirasi bevosita ushbu organga aloqador bo'lganligi uchun, aytishni joiz deb bildimki, intellektual mulk sohasidagi ushbu vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi 221-sonli qaroriga asosan, " Intellektual mulk vazirligi (departamenti)" ga o'zgartirilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 62-bob 1082-modda birinchi qism;

Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari – sanoat mulkining obekti hisoblanadi. Ushbu mulkni yaratgan muallif (hammualliflar) mulkdan har kimning noqonuniy foydalanishini oldini olish, foyda ko‘rish, umuman aytganda, uni muhofaza qilish uchun unga patent oladi. Patent – muhofazaning bir turi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi (keying o‘rinlarda sanoat mulki haqidagi) Qonunining 5-moddasi birinchi, oltinchi va to‘qqizinchi qismlarida belgilanganidek, ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari bo‘lgan huquq uni yaratgan shaxsga – muallifga (hammualliflarga) yoki uning (ularning) huquqiy vorisiga (huquqiy vorislariga) tegishli bo‘ladi va patent bilan tasdiqlanadi.² Intellektual mulk departamentiga patent olish uchun talabnoma topshirilgan sanadan hisoblaganda, ixtiro uchun patent yigirma yil mobaynida, sanoat namunasi patenti o‘n yil mobaynida, foydali model patenti esa besh yil mobaynida amal qiladi.³ Bundan tashqari, aytish muhimki, ixtiro va foydali model patenti ta‘minlab beradigan huquqiy muhofaza hajmi ularning formulasi bilan, sanoat namunasi ta‘minlaydigan huquqiy muhofaza hajmi esa buyumning tasviridagi muhim belgilari va ularning kombinatsiyasi bilan belgilanadi.⁴

Yuqorida aytib o‘tilganidek, sanoat mulki obektlari Intellektual mulk departamenti tomonidan taqdim etiladigan patent orqali o‘z muhofazasiga ega bo‘ladi. Biroq ushbu muhofaza inson tomonidan yaratilgan har qanday mulk obektiga ham taqdim etilavermaydi, ya’ni patent olish uchun ham yaratilgan obekt

² O‘zbekiston Respublikasi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonun, 5-modda birinchi qism;

³ Shu yerda, 5-modda oltinchi qism;

⁴ Shu yerda, 5-modda to‘qqizinchi qism;

ayrim xususiyatlarga javob berishi va bir qancha bosqichdan o'tishi shart hisoblanadi. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning 6- moddasida ixtironing patentga layoqatlilik shartlari mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, muallif tomonidan ixtiro sifatida ko'rsatilgan obekt yangi, ixtirolik darajasiga ega, qolaversa, uni sanoatda qo'llash mumkin bo'lsagina, uning huquqiy muhofaza qilinishi belgilangan. Ixtiroga qo'yilgan ushbu shartlar, uning patent olishi uchun eng muhim talablardan sanaladi. Xususan, ixtironing "yangi" bo'lishi deyilganda, yaratilgan obekt butun dunyoning texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasligi nazarda tutiladi. Ana shu texnika taraqqiyoti darajasi haqidagi barcha ma'lumotlardan yaqqol ayon bo'lmasligi esa, ixtironing ixtirolik darajasiga ega ekanligidan dalolat beradi. Nafaqat ixtiroda, balki intellektual mulk huquqining barcha obektlari uchun ustuvorlik sanasi mavjud bo'lib, ushbu muddat muhofaza (himoya) olish uchun Departamentga talabnoma topshirilgan kunni anglatadi. Yuqorida aytib o'tilgan "texnika taraqqiyoti darajasi" ixtironing ustuvorlik sanasiga qadar dunyoda ommaga oshkor bo'lgan har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, agar ixtirodan qishloq xo'jaligi, sanoat, sog'liqni saqlashva sanoatning boshqa sohalarida foydalanish mumkin bo'lsa, u sanoatda qo'llash mumkin deb tan olinadi.⁵

Sanoat mulkining keyingi obekti sifatida foydali modelni biz ixtironing takomillashgan ko'rinishi sifatida atasak bo'ladi. Qonunning 7-moddasi foydali modelning patentga layoqatlilik shartlarini belgilab qo'ygan. Unga ko'ra, foydali

⁵ O'zbekiston Respublikasi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonun 6-modda;

model patent olishi uchun yangi va sanoatda qo'llasa bo'ladigan bo'lishi shart. Aytish joizki, ixtiro deyilganda, ana shu ixtiro deb ko'rsatilayotgan obekt butun jahon doirasini, foydali model esa ma'lum davlat hududi doirasini qamrab oladi.

Sanoat namunasi esa tovarning dekorativ dizayni ya'ni tashqi ko'rinishini bildiradi. Sanoat namunalari uchun patentga layoqatlilik shartlari yangi va originallikni (o'ziga xoslikni) o'z ichiga oladi. Oddiy misol qilib, aloqa almashinuv vositasi – telefonni olaylik. Uning ilk bor yaratilgani – dunyoda telefon kabi ixtiro vujudga kelganidan darak bergan, undan keyingi va hozirgacha yildan-yilga takomillashib kelayotgan telefon turlari – bevosita ana shu ixtironing ya'ni telefonning foydali modeli hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, “Apple”, “Svmsung”, “Iphone”, “RedMi” kabi bir qancha brendlar o'z sanoat namunlari bilan butun dunyoga mashhur.

Bevosita ularning muhofazasiga to'xtalganda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1032-moddasini yodga olish o'rinli bo'ladi. Ushbu moddada intellektual mulk obektlarini huquqiy muhofaza qilish ularning yaratilganligi tufayli yoki qonunchiligimizda nazarda tutilgan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan huquqiy muhofaza berilishi natijasida yuzaga kelishi belgilangan.⁶ Sanoat mulki obektlari patent olganlaridan so'ng, o'z himoyalariga ega bo'ladi. Sanoat mulki haqidagi qonunimizda ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari uchun patent olish tartibi belgilangan. Patent olish jarayoni bevosita patent berish haqidagi talabnomaning topshirilishi bilan boshlanadi. Ushbu talabnoma muallif, ish beruvchi, bundan tashqari, ularning huquqiy vorisi

⁶ Fuqarolik kodeksi, 1032-modda;

tomonidan davlat axborot tizimlari orqali departamentga beriladi. Aytish joizki, patent berish haqidagi talabnomalarga belgilangan miqdordagi patent bojining to'langanligining yoki uni to'lashdan ozod qilishning (miqdori kamaytirilishining) huquqiy asoslarini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi kerak. Bugungi kunda ushbu boj BHM ning 4,8% ini taxminan aytganda, 1,5 mln.ni tashkil etadi. Yuqoridagi kabi hujjatlar O'zbekiston Respublikasining vakolatli organi – Intelletual mulk departamenti tomonidan belgilanadi. Talabnoma nafaqat shaxsan topshiriladi, balki uni patent vakili va yoki ishonchli shaxs orqali topshirilishiga qonunchilik ham ruxsat bergan.⁷ “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida”gi Qonunimiz sanoat mulkining har bitta obekti uchun patent olishning alohida tartibini joriy etgan. Xususan, qonunning 15-moddasida ixtiroga patent berish haqidagi talabnoma borasida bir qancha tartiblar belgilangan. Agar vakolatli shaxs ixtironi muhofaza qilmoqchi bo'lsa, u holda u bergan talabnoma o'z ichiga patent kimning nomiga so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, uning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani, ixtironing mohiyatini to'la ifodalovchi va uning tavsifiga muvofiq bo'lgan formulasini, qolaversa, ixtiro referatni olishi lozim. Foydali model haqidagi talabnomada ham aynan yuqoridagi kabi hujjatlar talab etiladi. Sanoat namunasi haqidagi talabnoma esa uning muallifi (hammualifi) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek, ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizadan, bundan tashqari, buyumning tashqi ko'rinishi haqida to'la tasavvur qilish imkonini beruvchi buyum aks ettirilgan tasvirlar turkumidan, rasmlardan, zarur bo'lganda, uning ergonomik sxemasi va

⁷ “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunlari to'g'risida”gi Qonun, 14-modda;

uning muhim belgilar majmuini o'zida aks ettirgan tavsifdan tarkib topadi.⁸ Keyingi jarayonlar bevosita davlat ekspertizasi: rasmiy ekspertiza va ilmiy-texnik ekspertiza bilan bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Talabnomani taqdim etgan shaxs talabnoma departamentga topshirilgan sanadan keyin ikki oy mobaynida talabnomani to'ldirishi, unga qo'shimcha hujjatlar ilova etishi yoki qo'shimcha patent boji boji evaziga belgilangan muddat o'tganidan keyin ham unga qo'shimcha hujjatlar taqdim etishi mumkin, lekin ushbu muddat departament patent berish haqida qaror qabul qilguniga qadar taqdim etilishi kerakligi qonunda o'z aksini topgan. Agar patent berish haqidagi talabnoma o'z shartlariga javob bermasa, departament talabnomani topshirgan shaxsga so'rov yuboradi va so'rov yuborilgan sanadan e'tiboran uch oy mobaynida unga yetishmayotgan hujjatlarni taqdim etish so'raladi. Biroq ushbu muddat ichida talabnoma topshirgan shaxsdan hech qanday harakat bajarilmasa, uning talabnomasi "chaqirib olingan" deb hisoblanadi. Yuqoridagi bosqichlardan so'ng, departament sanoat mulkiga patent berish to'g'risida qaror qabul qilsa, o'sha sanoat mulkini tegishli tartibda davlat ixtirolar reestrda, davlat foydali modellar reestrda va davlat sanoat namunalari reestrda ro'yxatga oladi.⁹ Ushbu jarayon ya'ni sanoat mulki davlat reestrda o'tkazilsa ham bu haqda intellektual mulk departamenti rasmiy axborotnoma nashr etadi. Nima uchun bularni aytyapman? Chunki sanoat mulkiga patent olish ana o'sha sanoat mulkining ro'yxatdan o'tkazilganligi haqidagi departamentning rasmiy axborotnomasidan 10 kun o'tganidan so'ng ana shu vakolatli organ

⁸ Shu yerda, 17-modda;

⁹ "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasi;

tomonidan amalga oshiriladi. Eng asosiysi, berilayotgan patent O'zbekiston Respublikasi nomidan beriladi va departament rahbari tomonidan imzolanadi.

Yuqoridagilarga umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, sanoat mulkining muhofazasi unga patent berilganidan boshlanadi. Ya'ni patent unga muhofaza taqdim etadi. Uni olishning tartibi esa bevosita qonunchiligimizda mustahkamlangan bo'lib, bunda vakolatli organ – Intellektual mulk departamentining o'рни nihoyatda ahamiyatli. Mavzu doirasida tabiiy savol tug'iladi: Sanoat mulkiga berilgan patentni O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasida haqiqiy emas deb topilish asoslari nimalardan iborat? O'zbekiston Respublikasi "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunning 27-moddasi sanoat mulki obekti patentini haqiqiy emas deb e'tirof etish mavzusiga bag'ishlangan. Sanoat mulki obektiga berilgan patent Apellatsiya kengashiga berilgan appellatsiya bo'yicha istalgan vaqtda unga taqdim etilgan huquqiy muhofazaning butun qismi yoki alohida bir qismiga nisbatan bir qancha asoslarga ko'ra, haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi qonunning ushbu moddasida nazarda tutilgan. Sanoat mulkiga berilgan patent:

➤ Tegishli sanoat mulkining obekti patentga layoqatlilik shartlariga mos bo'lmasa;

Demak, yuqorida sanab o'tilgan patentga layoqatlilik shartlariga sanoat mulkining javob bermasligi bevosita uning haqiqiy emasligiga olib kelishi mumkin.

➤ Sanoat namunasining muhim belgilari majmuida, ixtiro va foydali modellarning esa formulasida talabnomaning dastlabki materiallarida bo'lmagan belgilarning mavjudligi yoki mavjud belgilarning yo'qolishi (o'zgarishi);

Ushbu badda esa talabnoma topshirilgan sanada mavjud bo'lmagan belgilarning ya'ni muhofazasiz belgilarning mavjud bo'lishi nazarda tutilyapti, ya'ni mulk qanday muhofaza etilgan bo'lsa, shundayligicha qolishi kerak, uni o'zboshimchalik bilan o'zgartirish – haqiqiy emaslikka olib kelishi mumkin.;

➤ Patent egasi sifatida ko'rsatilgan shaxsning patent olish uchun hech qanday qonuniy asosga ega emasligi kabi holatlarda haqiqiy emas deb topiladi.

Ushbu banddan bilishimiz mumkinki, patent olayotgan shaxs, avvalo, uni olishga qonuniy haqli bo'lishi lozim.

Aytish o'rinliki, patentning haqiqiy emasligi haqidagi da'voni ilgari surgan taraf uning haqiqiy emasligini isbotlab berishi shart hisoblanadi.

Bugungi kunning eng iqtisodiy rivojlangan davlatlaridan biri – bu, shakshubhasiz, Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi. Federatsiyada intellektual mulkni boshqarish maxsus davlat xizmatlari orqali amalga oshiriladi. Uning nomi esa “Rospatent”dir. Aytish joizki, Rospatentning maqsadi intellektual mulkdanfoydalanishni bevosita o'z nazorati ostiga olish, qolaversa, nazorat qilishga qaratilgan funksiyalarni amalga oshirish, bundan tashqari, intellektual mulk va ularning obektlarini himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.

Rossiya Federatsiyasida sanoat mulki obektiga berilgan patentni haqiqiy emas deb topish uning, asosan, fuqarolik qonunchiligiga ko'ra belgilanadi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi fuqarolik kodeksining 1398-moddasida belgilanishicha, bir qancha holatlarda ixtiro, foydali model va sanoat namunasi uchun berilgan patent to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin :

- Sanoat mulki obektining Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida belgilangan patentga layoqatlilik shartlariga yoki talablariga mos kelmasligi;
- Ixtiro yoki foydali modelni taqdim etish sanasida taqdim etilgan ixtironing yoki foydali modelning mohiyatini ixtiro yoki foydali modelni ushbu texnologiya sohasidagi mutaxassis tomonidan amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan to'liqligi bilan oshkor qilish talabiga mos kelmasligi;
- Patent berish to'g'risidagi qarorda mavjud bo'lgan ixtiro formulasida yoki foydali modelda ushbu sanada taqdim etilgan hujjatlarda patent olish uchun talabnoma berilgan sanada oshkor etilmagan belgilar mavjudligi, yoki sanoat namunasiga berilgan patentni haqiqiy emas deb topishda, talabnoma berilgan sanada taqdim etilgan tasvirlarning yo'q bo'lishi, o'zgarishi yoki talabnoma berilgan sanada taqdim etilgan tasvirda mavjud bo'lmagan tasvirning bor bo'lishi.¹⁰

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksida belgilanganidek, Rossiya hududida sanoat mulkining patentini haqiqiy emas deb topish vakolatli organ – intellektual mulk bo'yicha federal ijroiya organi tomonidan yoki sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida hal etiladi. Agarda

¹⁰ Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi 1398-modda;

patent sanoat mulki obektiga qisman haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, unga yangi patent berilishi belgilangan. Bundan tashqari, kodeksda uning oqibatlari yechimi ham belgilangan bo'lib, unga ko'ra, patent olgan sanoat mulki obekti keyinchalik haqiqiy emas deb topilganda, uning patenti asosida tuzilgan litsenziya shartnomalari patentning haqiqiy emasligi to'g'risida qaror qabul qilingan muddatgacha amal qilgan darajada saqlanib qoladi. Eng asosiysi, agar ixtiro, foydali model yoki sanoat namunasi uchun berilgan patent haqiqiy emas deb topilganda, bevosita intellektual mulk bo'yicha federal ijroiya organining sanoat mulki obektlariga patent berish to'g'risidagi qarorini bekor qilinishini anglatadi.

Yuqoridagilardan tashqari, Rossiya fuqarolik kodeksining 1349-moddasida patent huquqiga ega bo'lishi ta'qiqlangan to'rtta holat keltirilgan bo'lib, ular :

- Insonni klonlash va uning turli usullari;
- Inson jinsiy hujayralarining genetik yaxlitligini o'zgartirish usullari;
- Inson embrionlaridan sanoat va tijorat maqsadlarida foydalanish;
- Intellektual mulk obektlari – agarda ular jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloqiy tamoyillarga zid bo'lsa.¹¹

Xalqaro minbarga nazar tashlar ekanmiz, bugungi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi sanoat mulkiga oid bir qancha shartnomalarga a'zo hisoblanadi. Misol uchun, 1883-yil 20-martda qabul qilingan Sanoat mulki muhofazasi bo'yicha Parij Konvensiyasi (O'zbekiston 1991-yilda a'zo bo'lgan), 01.06.2000-yildagi "Patent huquqi to'g'risida"gi shartnoma, 19.06.1970-yildagi "Patent

¹¹ Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksi 1349-modda;

kooperatsiyasi to'g'risida"gi shartnoma, 08.10.1968-yildagi "Sanoat namunalarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida"gi Lokarno bitimi.

"Patent kooperatsiyasi to'g'risida"gi shartnoma taraflarga 2 xil usulda ro'yxatdan o'tkazishni nazarda tutadi. Ya'ni bevosita: to'g'ridan-to'g'ri Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (WIPO) o'ziga, yoki bilvosita: avval vakolatli organ bo'lgan departamentga, ushbu organ esa butunjahon intellektual mulk tashkilotiga so'rov yuboradi. Ushbu shartnoma sanoat mulkining turiga qarab, 18 oygacha ustuvorlik beradi. Parij konvensiyasida esa arizaning mustaqillik tamoyili e'tiborli hisoblanib, davlat arizasida ko'p davlatlardan ro'yxatdan o'tkazishni so'ragan bo'lsa-da, har bitta davlatda alohida ro'yhatdan o'tishi joizligi belgilangan.

"Patent huquqi to'g'risida"gi shartnomaning 10-moddasida ham patentning haqiqiyligi borasida qoida belgilangan bo'lib, unga ko'ra, patentning haqiqiyligi, ayrim rasmiy talablarni bajarmaslikka bog'liq bo'lmagan holda, topshirilgan talabnomaga nisbatan patentni to'liq yoki qisman haqiqiy emas, deb topish uchun asos bo'lmasligi (bundan maqsadli aldash natijasi bo'lgan holatlar mustasno), qolaversa, agar patent unga o'zgartirishlar, izohlar kiritilishi kerakligini talab etsa, ana shu izohlar yoki o'zgartirishlar kiritish imkoniyatini taraflarga bermay turib, uni haqiqiy emas deb topish mumkin emasligi ham belgilangan.¹²

Xulosa qilib aytganda, patent – sanoat mulkining muhofazasi hisoblanib, ixtiro, foydali model yoki sanoat namunalari qachon patent olishsagina, muhofazaga ega bo'lishadi. Patent olish tartibi esa turli mamlakatlarning o'z ichki

¹² "Patent huquqi to'g'risida"gi shartnoma 10-modda.

qonunchiligida tegishli tartibda belgilangan. Bizda ham ushbu tartib O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan bo'lib, bu borada vakolatli davlat organi – Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk departamenti hisoblanadi. Xalqaro doirada esa bu borada Parij konvensiyasiga, muhofazalash bo'yicha esa "Patent huquqi to'g'risida"gi va "Patent kooperatsiyasi to'g'risida"gi shartnomalarga murojaat etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni;
4. 1883.20.03. Sanoat mulki muhofazasi bo'yicha Parij Konvensiyasi;
5. "Patent huquqi to'g'risida"gi shartnoma;
6. "Patent kooperatsiyasi to'g'risida"gi shartnoma;
7. Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi;
8. Milliy qonunlar bazasi: **lex.uz**.